

BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TALABLARI

Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich

Turon universiteti, Andijon filiali dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada professional ta'lim muassasalarining iqtisodiyot yo'nalishlarida tahsil olayotgan o'quvchi-yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning dolzarb pedagogik va kasbiy jihatlarini ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Xususan, raqamli texnologiyalar keng joriy etilayotgan zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida iqtisodiyot sohasi mutaxassislarning kasbiy faoliyatida axborot bilan ishlash, uni tahlil qilish, saqlash, uzatish va himoya qilish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarda axborot madaniyatini shakllantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida axborot xavfsizligi bo'yicha bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni egallash zarurati ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: axborot madaniyati, axborot xavfsizligi, iqtisodiyot yo'nalishi, professional ta'lim, bo'lajak iqtisodchi mutaxassis, axborot kompetensiyasi, axborot tahdidlari, axborotni himoya qilish, raqamli texnologiyalar, axborotlashgan jamiyat, kasbiy kompetensiya, axborot bilan ishlash madaniyati.

KIRISH.

Zamonaviy globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida jamiyatning barcha sohalarida axborot resurslarining ahamiyati keskin ortib bormoqda. Axborot iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va texnologik rivojlanishning muhim strategik resursiga aylanganligi sababli, undan samarali va xavfsiz foydalanish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda[6]. Ayniqsa, iqtisodiyot sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning kasbiy samaradorligi ko'p jihatdan ularning axborot bilan ishlash madaniyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi hamda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetensiyalariga bog'liqdir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodchi mutaxassislarning turli xil iqtisodiy axborotlar, jumladan, moliyaviy hisobotlar, buxgalteriya ma'lumotlari, tijorat sirlari va elektron ma'lumotlar bazalari bilan ishlaydi. Ushbu axborotlarning xavfsizligini ta'minlash nafaqat alohida tashkilot, balki butun iqtisodiy tizim barqarorligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, professional ta'lim muassasalarida iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchi-yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish,

ayniqsa, axborot xavfsizligi bo'yicha bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Professional ta'lim tizimida bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ularda axborot bilan ishlashning nazariy asoslari, axborot resurslaridan samarali foydalanish, axborotni himoya qilish, axborot xavfsizligi tahdidlarini aniqlash va oldini olish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Chunki axborot xavfsizligiga tahdidlar iqtisodiy faoliyat samaradorligiga, tashkilotlarning moliyaviy barqarorligiga va raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, professional ta'lim muassasalarida iqtisodiyot yo'nalishidagi o'quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Axborot madaniyati va axborot xavfsizligi masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, R. Samarov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda axborot xavfsizligi shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinib, axborot muhitida yuzaga keladigan tahdidlarning oldini olishda axborot madaniyatining ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, Samarov va Sattarovlarning ilmiy ishlarida axborot madaniyatini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari, uning shaxsning kasbiy va ijtimoiy faoliyatidagi o'rni ilmiy jihatdan yoritilgan[7].

V.A. Semenenko axborot xavfsizligini axborot resurslarini himoya qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimi sifatida izohlaydi va uning asosiy komponentlari sifatida axborotning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv axborot xavfsizligini ta'minlashning nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

V.P. Polyakov o'z tadqiqotlarida iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalarni tayyorlash jarayonida axborot xavfsizligini o'qitishning didaktik asoslarini ishlab chiqqan va bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda axborot xavfsizligi bo'yicha bilimlarning muhimligini asoslab bergan. Unga ko'ra, iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy faoliyatida axborot resurslaridan xavfsiz foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lishi zarur.

Shuningdek, O'.D. Rajabov iqtisodiy ta'limning iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishdagi o'rnini tahlil qilib, iqtisodiy bilimlar shaxsning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Zamonaviy sharoitda iqtisodiy kompetensiya axborot bilan ishlash kompetensiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu esa axborot madaniyatini shakllantirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, axborot madaniyatini shakllantirish va axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari turli jihatlarida o'rganilgan

bo'lsa-da, professional ta'lim muassasalarida iqtisodiyot yo'nalishi o'quvchilarida axborot xavfsizligi asosida axborot madaniyatini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Shu sababli ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqot professional ta'lim muassasalarida iqtisodiyot yo'nalishi o'quvchilarida axborot madaniyatini shakllantirish jarayonini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda umumilmiy va maxsus pedagogik tadqiqot metodlaridan kompleks foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini axborot madaniyati, axborot xavfsizligi, kasbiy kompetensiya va professional ta'lim nazariyasiga oid ilmiy manbalar, pedagogik konsepsiyalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, tizimlashtirish, taqqoslash va umumlashtirish metodlari yordamida axborot madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari o'rganildi.

Empirik tadqiqot metodlari sifatida pedagogik kuzatish, suhbat, anketa so'rovi va pedagogik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining axborot madaniyati darajasi, axborot xavfsizligi bo'yicha bilimlari va axborot bilan ishlash ko'nikmalari o'rganildi hamda tahlil qilindi.

Shuningdek, tizimli yondashuv asosida axborot madaniyatini shakllantirish jarayoni yaxlit pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqildi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida esa bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarining kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan axborot xavfsizligi kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirildi[9].

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar tahlil qilinib, umumlashtirildi va professional ta'lim muassasalarida iqtisodiyot yo'nalishi o'quvchilarida axborot madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR.

Jahon miqyosida axborotlashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi iqtisodiy, siyosiy, sanoat, moliya va boshqa strategik sohalarni chuqur qamrab olmoqda. Natijada axborot jamiyatning eng muhim resurslaridan biriga aylanib, axborot xavfsizligi umumiy xavfsizlik tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Axborot resurslari hajmining ortib borishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi hamda iqtisodiy faoliyatning raqamli shakllarga o'tishi axborotni himoya qilish va axborot xavfsizligini ta'minlash masalasining dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda.

Axborotlashtirish sohasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning kengayishi bilan bir qatorda, ushbu sohada sodir etilayotgan huquqbuzarliklar, axborot tahdidlari va kiberxavfsizlik muammolarining ortib borishi axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan yangi mexanizmlar va yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, professional ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash jarayoniga axborot xavfsizligini ta'minlashga o'rgatishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Professional ta'lim jarayonini takomillashtirish, bo'lajak mutaxassislarni zamonaviy axborot muhitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlash bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda[10].

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlar, jumladan, Xitoy, Yaponiya va Finlyandiya ta'lim standartlarida iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha tayyorlanayotgan mutaxassislarda axborot madaniyati va axborot xavfsizligini ta'minlash kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu mamlakatlar ta'lim tizimida iqtisodiy bilimlar bilan bir qatorda moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, kichik biznesni rivojlantirish hamda axborot resurslaridan xavfsiz foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanadi. Bu esa zamonaviy mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasi tarkibida axborot madaniyati muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Globalashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari sharoitida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida iqtisodiy bilimlar bilan bir qatorda axborot madaniyatini shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

1-jadval.

Bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy komponentlari, pedagogik vositalari va natijalari.

№	Axborot madaniyati komponenti	Mazmuni	Pedagogik vositalar	Shakllantiriladigan kompetensiyalar	Kutilayotgan natija
1	Axborot bilan ishlash kompetensiyasi	Axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish va tizimlashtirish	AKT asosida o'qitish, elektron resurslar, mustaqil ishlar	Axborotni tahlil qilish va undan foydalanish kompetensiyasi	Axborotni samarali boshqarish qobiliyati shakllanadi
2	Axborot xavfsizligi kompetensiyasi	Axborotni himoya qilish, tahdidlarni aniqlash	Maxsus kurslar, amaliy mashg'ulotlar, treninglar	Axborot xavfsizligini ta'minlash kompetensiyasi	Axborotni himoya qilish ko'nikmalari rivojlanadi
3	Raqamli kompetensiya	Raqamli texnologiyalardan foydalanish	Elektron ta'lim platformalari, simulyatsiyalar	Raqamli texnologiyalardan foydalanish kompetensiyasi	Zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish
4	Analitik kompetensiya	Axborotni tahlil qilish va qaror qabul qilish	Case-study, muammoli vaziyatlar	Analitik fikrlash kompetensiyasi	Iqtisodiy qaror qabul qilish qobiliyati oshadi
5	Huquqiy-axborot kompetensiyasi	Axborotdan foydalanishning huquqiy asoslari	Normativ hujjatlar bilan ishlash	Huquqiy savodxonlik kompetensiyasi	Axborotdan qonuniy foydalanish ko'nikmasi
6	Kommunikativ kompetensiya	Axborotni uzatish va taqdim etish	Prezentatsiya, jamoaviy ish	Axborot almashish kompetensiyasi	Axborotni samarali uzatish ko'nikmasi

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda iqtisodiy ta'limni takomillashtirish, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda professional ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida iqtisodiyot yo'nalishlarida tahsil olayotgan o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda raqamli iqtisodiyot talablari, zamonaviy texnologik o'zgarishlar hamda ta'lim mazmunining yangilanishi hisobga olinmoqda. Shu munosabat bilan, bo'lajak mutaxassislarda iqtisodiy bilimlar bilan bir qatorda axborot madaniyatini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda professional ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri – o'quvchilarni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga moslasha olish qobiliyatini rivojlantirish, iqtisodiy bilimlarni mustaqil ravishda egallash va ulardan amaliy faoliyatda samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, o'quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish, axborot resurslaridan ongli va xavfsiz foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Professional ta'lim muassasalari bitiruvchilari iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, iqtisodiy qarorlar qabul qilish hamda zamonaviy axborot muhitida samarali faoliyat yuritish kompetensiyalariga ega bo'lishlari zarur.

Iqtisodiy madaniyat jamiyat a'zolarining iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki, ularning iqtisodiy bilimlari, xo'jalik yuritish malakasi, iqtisodiy tafakkuri va iqtisodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatining rivojlanganlik darajasini ifodalovchi muhim ijtimoiy-pedagogik kategoriya hisoblanadi. Iqtisodiy ta'lim esa shaxsda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, iqtisodiy jarayonlarni anglash, resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish hamda samarali iqtisodiy faoliyat yuritish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy ta'limning ahamiyati iqtisodiy tarbiyani shakllantirish, samarali tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, bank va moliya tizimi bilan samarali ishlash hamda iqtisodiy faoliyatda faol ishtirok etish orqali namoyon bo'ladi [2].

Iqtisodiy bilimlarning shakllanishi shaxsda iqtisodiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol jarayonlarini tushunish hamda iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish uchun zarur kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy bilimlar shaxsning iqtisodiy kompetensiyasini shakllantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash jarayonida axborot madaniyatini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Axborot madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo'lgan axborot xavfsizligi iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutadi. Iqtisodchi mutaxassislarning

kasbiy kompetensiyasi iqtisodiy axborotlarni saqlash, qayta ishlash, saralash, himoya qilish, tijorat va davlat sirlarini saqlash hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Axborot xavfsizligiga tahdidlar esa tashkilotlarning moliyaviy barqarorligiga jiddiy zarar yetkazishi, iqtisodiy faoliyat samaradorligini pasaytirishi hamda tashkilot faoliyatining to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ularda axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot xavfsizligini ta'minlash kompetensiyalarini shakllantirish mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi [1].

Mazkur yo'nalish davlat darajasida ham alohida e'tiborga olingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarida axborot resurslarini himoya qilish, axborot infratuzilmasining xavfsizligini ta'minlash hamda axborot bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish masalalari alohida belgilangan.

Ushbu hujjatlarda davlat statistikasi tizimi, kredit-moliya tizimi, buxgalteriya hisobi tizimlari, davlat boshqaruvi organlari hamda turli tashkilotlarning axborot tizimlari axborot xavfsizligi tahdidlariga eng ko'p duch keluvchi tizimlar sifatida e'tirof etilgan. Bu esa iqtisodiyot sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarda axborot xavfsizligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi[8].

Axborot xavfsizligi tushunchasi axborotni himoya qilish tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Jumladan, «agar axborotni himoyalash zarur ma'lumotlarni himoya qiladigan va ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratish jarayonini tavsiflasa, unda axborot xavfsizligi bunday himoyalanganlikka erishilgan holatni aks ettiradi» [3]. V.P. Polyakovning ta'kidlashicha, axborot xavfsizligi – bu axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot faoliyati sub'ektlarining huquqlari himoyalanganlik holatidir [5]. Shuningdek, axborot xavfsizligi axborot sub'ektlari va axborot infratuzilmasiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan tasodifiy yoki ataylab amalga oshiriladigan ta'sirlardan himoyalanganlik holatini ifodalaydi [4].

Axborot xavfsizligiga tahdidlar turli darajada namoyon bo'lishi mumkin. Jumladan, muhim bo'lmagan ma'lumotlarning yo'qolishi, texnik vositalarning ishdan chiqishi yoki axborot tizimlaridagi nosozliklar tashkilot faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday holatlar iqtisodiy faoliyat samaradorligining pasayishiga, muhim hujjatlarning yo'qolishiga hamda mutaxassislarning kasbiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, iqtisodiyot yo'nalishidagi mutaxassislarda axborot xavfsizligi bo'yicha bilimlarni shakllantirish axborot tahdidlariga qarshi samarali himoya mexanizmlarini yaratishga xizmat qiladi. Shu bois, professional

ta'lim muassasalarida iqtisodiyot yo'nalishi o'quvchilarida axborot xavfsizligi asosida axborot madaniyatini shakllantirish, «Kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalari» fanining mazmuniga axborot xavfsizligiga oid mavzularni kiritish hamda maxsus o'quv kurslarini tashkil etish zarur hisoblanadi.

XULOSA.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot resurslari iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylangan bo'lib, ulardan samarali va xavfsiz foydalanish masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning kasbiy samaradorligi ularning axborot bilan ishlash madaniyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi hamda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetensiyalariga bevosita bog'liqdir. Shu bois, professional ta'lim muassasalarida iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchi-yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish, uning muhim tarkibiy qismi hisoblangan axborot xavfsizligi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonida axborot madaniyatini rivojlantirish, ayniqsa, axborot xavfsizligini ta'minlashga oid bilimlarni o'rgatish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bilim va ko'nikmalar mutaxassislarning iqtisodiy axborotlarni himoya qilish, axborot resurslaridan samarali foydalanish, axborot tahdidlarini aniqlash va ularning oldini olish hamda kasbiy faoliyatni xavfsiz tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodchi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish va ularning zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida professional ta'lim tizimida axborot madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslarini takomillashtirish zarurligi aniqlandi. Jumladan, iqtisodiyot yo'nalishidagi o'quvchilarni tayyorlash jarayonida «Kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalari» fanining mazmunini axborot xavfsizligi masalalari bilan boyitish, maxsus o'quv kurslarini tashkil etish, axborot xavfsizligiga oid amaliy mashg'ulotlarni keng joriy etish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, professional ta'lim muassasalarida iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchi-yoshlarda axborot xavfsizligi asosida axborot madaniyatini shakllantirish ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, iqtisodiy faoliyatda axborot resurslaridan samarali va xavfsiz foydalanish hamda zamonaviy axborotlashgan jamiyat talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda ilmiy

asoslangan pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish professional ta’lim tizimini takomillashtirish hamda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Самаров Р. Ахборот-психологик хавфсизлик. // Ж. “Муҳофаза”, 2009, № 09 (59).
2. Раджабов Ў.Д. Иқтисодий таълимнинг иқтисодий тафаккурга таъсири. Замонавий таълим / современное образование 2017, №11.
3. Семенов В.А. Информационная безопасность: учеб. пособие /В.А.Семенов. – Москва: МГИУ, 2005. – 215 с.
4. Самаров Р., Саттаров Й. Ахборот маданияти ва уни шакллантиришнинг назарий-амалий аҳамияти. Замонавий таълим / 2014, 1. – Б. 13-17.
5. Поляков В.П. Дидактический комплекс «Информационная безопасность» для подготовки студентов экономических специальностей /В.П. Поляков. – Н. Новгород: ННГАСУ, 2006. - 142 с.
6. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 2010.
7. UNESCO. Information Literacy Competency Standards for Higher Education. – Paris, 2018.
8. European Commission. Digital Competence Framework for Citizens (DigComp 2.1). – Brussels, 2017.
9. Anderson J., Rainie L. The Future of Information Literacy. – Pew Research Center, 2020.
10. Turdiev N., Abduqodirov A. Axborot madaniyatini shakllantirish asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
11. Қосимов Ш. Ахборот хавфсизлиги назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020.
12. Mishra P., Koehler M. Technological Pedagogical Content Knowledge Framework. – Teachers College Record, 2006.